

# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




## Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi 2023 yil yanvar-fevral oyida

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-hilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **877,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **120,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,4** % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oyida)

877,0 mlrd.  
so'm

104,4 %

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

120,4 mlrd.  
so'mga

• Hajmning o'sishi

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>877,0</b>	<b>104,4</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	53,2	125,9
Moliyaviy xizmatlar	300,1	102,2
Transport xizmatlari	111,8	101,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	105,2	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	18,3	94,3
Savdo xizmatlari	209,0	100,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	23,2	102,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	26,1	118,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	18,9	102,5
Ijara xizmatlari	16,9	85,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,4	101,4
Shaxsiy xizmatlar	17,7	102,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6,5	104,2
Boshqa xizmatlar	53,9	133,9

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2023- yilning yanvar-fevral oyida ularning ulushi 34,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (23,8 %), transport xizmatlari (12,8 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,1 %) qayd etildi.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz kamayish qayd etilib, ularning ulushi **0,7 %** ga yetdi

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **34,8 %** ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – **0,8 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2023- yilning yanvar-fevral oyida yuqori o'sish aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari (125,9 %), boshqa xizmatlar (133,9 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 120,7 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda ko'tarilish kuzatilgan – 131,8 %.

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da  
(2023- yil yanvar-fevral oyida)



2023- yilning yanvar-fevral oyida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Shirin shahar (101,5 %), Boyovut (102,4 %), Oqoltin (102,1 %) tumanlarga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Sardoba (101,3 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (24,0 %) va Yangiyer (16,0 %) shaharlarda, Sirdaryo (20,3 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,6 %).



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **23,8 %** ni tashkil etib, bu esa **209,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning hajmi 183,7 mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **24,3%** ga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari




2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **71,2 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2023- yil yanvar-fevral oyida)




**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,5 %** ni tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2023- yilning yanvar-fevral oyida)**



■ **Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**

■ **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



**2023- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Oqoltin (**79,5 %**) Mirzaobod (**79,1 %**) va Guliston tumanlarida (**74,0 %**), Yangiyer shahrida (**73,2 %**) kuzatilmoqda.



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida chakana savdo ulushi Mirzaobod tumanlarida maksimal darajaga yetgan – **79,0 %**.

Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu tumanda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **49,1 %** ni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida Sayxunobod tumanida Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdo ulushi **5,1 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**10,9 %**), Xovos (**9,0 %**), Guliston (**9,5 %**), Sardoba (**7,0 %**) tumanlarida qayd etildi.



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **10,9 %**.

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-fevral oyida)

2023- yil yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **300,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-fevral oyida ularning hajmi **263,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **34,2** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning ulushi **34,8** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **36,7** mlrd. so'mga oshdi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **102,2** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning o'sish sur'ati **139,4** % ni tashkil etgan.



**2023- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,9 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,2 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,9 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
*(2023- yil yanvar-fevral oylarida)*



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,7 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3 %**.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar




Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2023- yilning yanvar-fevral oylarida)

2023 - yilning yanvar - fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **53,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2022- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **125,9** % ni tashkil etgan.



**Taqqoslash uchun:**  
2022- yilning yanvar-fevral oylarida ushbu xizmat turi hajmi **41,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,4** % ga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **120,7** % ni tashkil etgan.


2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2023- yilning yanvar - fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **26,1 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,0 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida nisbatan o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yilning yanvar - fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (1,5 mlrd. so'm), Sayxunobod (0,5 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (19,4 mlrd. so'm) va Yangiyer (3,4 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar - fevral oylarida)



**Taqqoslash uchun:**  
2022- yilning yanvar - fevral oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 15,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2022- y.  
yanvar-fevral



2023- y.  
yanvar-fevral




2022- yilning yanvar - fevral oylarida nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 0,8 mlrd. so'mga ortgan.


2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2022- y. yanvar-fevral



2023- y. yanvar-fevral



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar - fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,9** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar - fevral oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,7** % ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

2023- y. yanvar-fevral



2022- y. yanvar-fevral





2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar - fevral oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	877,0	104,4	116,1
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	365,5	93,8	120,6
Shirin	12,6	105,7	112,1
Yangiyer	64,7	95,9	116,1
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	83,1	134,1	108,9
Guliston	40,2	114,5	114,6
Mirzaobod	40,8	110,0	113,7
Oqoltin	28,6	114,8	115,7
Sardoba	34,5	114,5	114,9
Sayxunobod	40,7	120,8	112,9
Sirdaryo	121,8	111,0	108,1
Xovos	44,5	114,7	116,3


2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2023- yil yanvar - fevral oylarida)



2023- yil yanvar - fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **41,7 %** (2022- yilning yanvar - fevral oylarida – **46,3 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **1,4 %** (2022- yilning yanvar - fevral oylarida – **1,4 %**) qayd etildi.

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning  
o'sishi



2023- yilning yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **988,1** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida nisbatan o'sish surati **102,3%** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2022- yilning yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 869,8 ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,9% da qayd etilgan.



O'sish sur'ati



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

8591 birlik



1500 birlikga

2023- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kamaygan

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

85,1 %



63,4 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (48,7 %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,2 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Savdo – 50,4

Boshqa turdagi xizmatlar – 31,7

Yashash va ovqatlanish – 8,8

Tashish va saqlash – 4,9

Axborot va aloqa – 2,1

Sog'liqni saqlash – 2,1




2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2023- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **50,1** % ni tashkil etdi.

### 2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **75,3** % ga to'g'ri keldi.

